

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Mamatov Dilshod Kodirovich
Saidov Narzillo Abdullayevich**

BADIIY KULOLCHILIKDA LOYIHALASH

O‘quv qo‘llanma

**“KAMOLOT” nashriyoti
BUXORO-2023**

UO‘K: 738
KBK: 85.124
M11

Mamatov Dilshod Kodirovich, Saidov Narzillo Abdullayevich / [Matn]:
o‘quv qo‘llanma / D.K.Mamatov, S.N.Abdullayevich -Buxoro : “BUXORO
DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 104 b.

Ushbu qo‘llanmadan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tasviriy san’at o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlarining “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”, Kasb ta’limi (Amaliy san’at), Kasb ta’limi (Badiiy kulolchilik) ta’lim yo‘nalishi talabalari, maktab o‘quvchilari, kulolchilik to‘garagi a‘zolari va shu sohaga qiziquvchi kitobxonlar qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

С данным пособием заинтересуются учителя изобразительного искусства общеобразовательных школ, «Изобразительного искусства и инженерной графики» высших учебных заведений, СПО (Прикладное искусство), СПО (Художественное керамика), школьники, члены керамического кружка и читатели в этой области можно использовать его в качестве руководства.

From this manual, teachers of fine arts of general secondary schools, "Fine arts and engineering graphics" of higher educational institutions, Vocational education (Applied art), Vocational education (Art pottery) students, schoolchildren, members of the pottery circle and readers interested in this field can use it as a guide.

ISBN 978-9910-734-71-7

Taqrizchilar:

Iftixor Kamolov - Qarshi davlat universiteti Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi kafedrasida dotsenti

Radjab Raximovich Atayev - Buxoro viloyati Buxoro tumani 21-umumta’lim
maktab oliy toifali tasviriy san’at fani o‘qituvchisi, “Shuhrat” medali sohibi

Akbar Muxamedov – Respublika “Hunarmand” uyushmasi Buxoro viloyati
boshqarmasi boshlig‘i

© “KAMOLOTT” nashriyoti
© Mamatov Dilshod Kodirovich
© Saidov Narzillo Abdullayevich

MUNDARIJA

KIRISH O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 23.03.2021-yil № PQ-5033 “Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”	5
I. KULOLCHILIK SAN’ATI TARIXI, RIVOJLANISHI	15
1.1 Xalq amaliy bezak san’atida kulolchilikning tutgan o‘rni	15
1.2 Mustaqillik yillarida kulolchilik maktablari va markazlarining rivojlanishi	18
1.3 O‘zbekistonda kulolchilik san’atiga ijod qilayotgan yetuk ustalar faoliyati	24
II. BADIY KULOLCHILIK TEXNOLOGIYALARI	33
2.1 Badiiy kulolchilikda ishlatiladigan material va loy turlari	33
2.2 Kulolchilik mahsulotlarini sirlash, rang berish va bezash texnologiyalari	36
2.3 Badiiy kulolchilik buyumlarini pechda va xumdonda pishirish jarayoni	37
Atamalarining izohli lug‘ati	41
Usta kulollar ijodidan namunalar	42
Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro‘yxati	101



“Hozirgi yuksak texnologilar asrida mana shunday oddiy, samimiy joylarni odam sog‘inadi. Bu hunarlarni, bu madaniyatni bobo-momolarimiz oz faqat qo‘li bilan emas, qalb qo‘ri bilan yaratgan. Bir paytlar bu yo‘nalishlar yo‘qolib ketishga oz qolgandi. Ularni asrab avaylayotganingiz uchun rahmat. Bu madaniyatimizni nafaqat chet elliklarga targ‘ib qilish, balki farzandlarimizga ham singdirish kerak”.

Sh.M.Mirziyoyev

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI 23.03.2021 yil № PQ-5033
«KULOLCHILIKNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA
QO‘LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA»

Mamlakatimizda qadimdan milliy qadriyat sifatida rivojlanib kelayotgan kulolchilik an’analarini asrab-avaylash, xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, har bir oila, jamoa, idora va tashkilotlarda uni keng targ‘ib etish, xalq ustalarining mehnatini munosib rag‘batlantirish, aholining keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jalb etish orqali sifatli kulolchilik mahsulotlarini ichki va tashqi bozorga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar an’anaviy va zamonaviy kulolchilikni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

kulolchilik yo‘nalishida zarur xomashyo bazasini yaratish, kulollarga er maydonlari va binolar ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta’minlash, qulay shartlarda kreditlar ajratish;

hududlarda kulolchilik an’analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida sohada ixtisoslashgan markazlar va galereyalar tashkil etish, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilishini kengaytirish;

kulolchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan hunarmandlarni (keyingi o‘rinlarda - kulollar) har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, usta-shogird maktablari faoliyatini tubdan takomillashtirish orqali yoshlarni sohaga keng jalb qilish va shu asosda yangi ish o‘rinlarini yaratish;

sohaning etuk namoyandalari tajribasi asosida kulolchilik an’analarini milliy iftixor ramzi sifatidaha bir oila, xonadon, mahalla hamda idora va tashkilotlarda keng targ‘ib qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish.

2. O‘zbekiston Respublikasida kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoat darajasiga olib chiqish maqsadida:

2021-2023 yillarda kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha istiqbolli reja ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq;

2021-2022 yillarda kulolchilik rivojlangan hududlarda qurilishi rejalashtirilgan kulolchilik markazlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq;

respublika hududidagi hunarmandchilik markazlari, yirik savdo majmualari, turistik marshrutga kiritilgan ob'ektlar va bozorlarda kulolchilik mahsulotlari savdosini tashkil qilish bo'yicha manzilli ro'yxat **3-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari binolarida tashkil etilgan shourum, yirik shaharlarda ochilgan doimiy ishlab turuvchi ko'rgazma zali va savdo do'konlariga mahsulot namunalari etkazib berishni yo'lga qo'yish bo'yicha "Yo'l-xaritasi" **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangidan tashkil etiladigan kulolchilik markazlaridagi turar va noturar joylar uchun mol-mulk va er solig'i stavkalari mazkur turar va noturar joylarga nisbatan mulk huquqi kulollarga berilgan oydan boshlab uch yil davomida 50 foiz miqdorida o'rnatilsin.

Quyidagilar:

"Hunarmand" uyushmasining a'zolari hunarmandchilik faoliyati mahsulotlari (tovar, ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotishda qat'iy belgilangan miqdorlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etilganligi;

qishloq joylarda ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandlar o'z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan ijtimoiy soliqning 50 foizini to'lashi;

"Hunarmand" uyushmasi tomonidan kulollarning murojaatlariga asosan bir ish kunida ro'yxatdan o'tkazish va a'zolik guvohnomasi berish tizimi yaratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Vazirlar Mahkamasi joriy yilda tijorat banklari tomonidan Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida hunarmandchilik uchun Markaziy bankning asosiy stavkasida 500 milliard so'm miqdorida kredit ajratilishini ta'minlasin.

5. Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3393-son **qarori** bilan tashkil etilgan "Hunarmand" uyushmasi tasarrufidagi "Craft and art" MCHJga quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi hisobidan 2021 yilda 5,0 milliard so'm, 2022 yilda 5,0 milliard so'm subsidiya ajratsin:

mazkur qarorning **4-ilovasiga** muvofiq xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar binolarida tashkil etilgan shourum, yirik

shaharlarda ochilgan doimiy ishlab turuvchi ko'rgazma zali va savdo do'konlariga mahsulot namunalari etkazib berishni yo'lga qo'yish;

kulolchilik mahsulotlarini respublikaning olis va boshqa hududlaridan sotib olish hamda realizatsiya va eksport qilishishlarini, shu jumladan xorijiy elektron tijorat maydonchalari orqali tashkil etish; mamlakatimizning turizm rivojlangan tuman (shahar)larida faoliyat olib boruvchi milliy hunarmandchilik savdo do'konlarini kulolchilik mahsulotlari bilan ta'minlash.

Savdo-sanoat palatasi "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda "Craft and art" MCHJga ajratilgan mablag'larning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish.

6. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi "Hunarmand" uyushmasi, Savdo-sanoat palatasi va Moliya vazirligi bilan birgalikda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 2021 yil 1 aprelga qadar usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatayotgan kulollarga shogirdlar tayyorlashi, zarur xomashyo sotib olishi va shogirdlarni ish haqi bilan ta'minlashi uchun subsidiyalar ajratish tartibini joriy etsin.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qonunchilikda belgilangan choralaridan foydalangan holda kulolchilikka o'qitish markazlari faoliyatini rivojlantirish choralarini ko'rsin.

7. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda har yili "Temir daftar", "Ayollar daftari" hamda "YOshlar daftari"ga kiritilgan yangi turmush qurayotgan yuz ming nafarxotin-qizlarga reja bo'yicha kulolchilik mahsulotlari to'plamini sovg'a qilish tizimini yo'lga qo'ysin.

Bunda, kulolchilik mahsulotlari Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Obod va xavfsiz mahalla" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'minlanishi belgilansin.

8. Davlat korxonalari, hokimliklar, banklar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga:

ularida faoliyat olib boruvchi xodimlarga Navro'z umumxalq bayrami, Mustaqillik bayrami arafasida, to'y-marosim va boshqa

tadbirlarda tashkilotning byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan kulolchilik mahsulotlari toʻplamini sovgʻa tariqasida berish;

oʻzlari joylashgan binoning kirish qismida mahalliy kulolchilik mahsulotlari namunalari burchagi tashkil etish tavsiya etilsin.

Transport vazirligi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi bilan birgalikda bir oy muddatda xalqaro aeroportlar "Duty free" hududlarida va temir yoʻl vokzallarida kulolchilik va boshqa turdagi hunarmandchilik mahsulotlari savdosi uchun maxsus joylar ajratilishini taʼminlasin.

9. Moliya vazirligi davlat muzeylari ehtiyojidan kelib chiqib kulollarning milliy qadriyatlarni aks ettirgan mualliflik asarlarini sotib olish uchun zarur boʻladigan mablagʻlarni 2021 yilda ajratsin hamda 2022 yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari parametrlarida nazarda tutsin.

10. Vazirlik, idoralar, tijorat banklari hamda davlat korxonalariga 2022 yil 1 sentyabrga qadar kulollar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri shartnoma tuzish orqali kulolchilik mahsulotlarini xarid qilishga ruxsat berilsin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda vazirlik va idoralar, banklar, davlat korxonalarining kulolchilik mahsulotlarini xarid qilish yuzasidan reja grafigini tasdiqlasin.

"Hunarmand" uyushmasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi hamda davlat xaridlari boʻyicha maxsus axborot portali operatorlari bilan birgalikda Elektron kooperatsiya portali hamda davlat xaridlari boʻyicha maxsus axborot portaliga uch oyda 20 tagacha, yil yakuniga qadar kamida 50 nafar kulollarni jalb qilish yuzasidan choralar koʻrsin.

11. "Oʻzsanoatqurilishbank" ATBning Fargʻona viloyati Rishton tumanida tashkil etilgan "Xalqaro kulolchilik markazi" hududida kulollar uchun qurilgan xonadonlarni ular tomonidan sotib olish maqsadida:

"Oʻzsanoatqurilishbank" ATB tomonidan xonadonlar qiymatining 50 foizi miqdorida kulollarga boshlangʻich badalsiz, faqat mazkur xonadonlar garovi ostida 20 yil muddatga, 3 yil imtiyozli davr bilan, Markaziy bankning asosiy stavkasida ipoteka kreditlarini ajratish;

Xonadonlar qiymatining 50 foiz miqdorini "Oʻzsanoatqurilishbank" ATB tomonidan qoplab berish haqidagi takliflari maʼqullansin.

Ushbu mablag'lar "O'zsanoatqurilishbank" ATBning xarajatlariga olib borilsin va foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlansin.

12. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi Farg'ona viloyati Rishton tumanida quriladigan kulolchilik markazlarining tashkil etilishini moliyalashtirish uchun "O'zsanoatqurilishbank" ATBga subordinar qarz sifatida 20 yil muddatga, 5 yillik imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasidan 5 foiz punkt past bo'lgan yillik foizda 100,0 milliard so'mgacha resurs mablag'lari ajratsin.

Belgilansinki, "O'zsanoatqurilishbank" ATB ajratilgan mablag'lar hisobidan:

Rishton tumanida yana 3 ta kulolchilik markazini qurish maqsadida Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan tanlab olingan tashabbuskorlarga - Markaziy bankning asosiy stavkasida kreditlar;

qurib bitkazilgan markazlardagi xonadonlarni sotib olish maqsadida kulollarga - boshlang'ich badalsiz, faqat mazkur xonadonlar garovi ostida 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasida ipoteka kreditlari;

mamlakat ichki bozorida ishlab chiqarilgan kulolchilik mahsulotlarini xarid qilish uchun aholiga - 3 yil muddatga ta'minotsiz Markaziy bankning asosiy stavkasida iste'mol kreditlari ajratiladi.

13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

mazkur qarorning **2-ilovasiga** muvofiq 2021-2022 yillarda qurilishi rejalashtirilgan kulolchilik markazlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan bo'sh er maydonlarini elektron onlayn-auksionga qo'yilishini ta'minlasin;

Energetika vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududgazta'minot" AJ bilan birgalikda kulolchilik markazlari foydalanishga topshirilgunga qadar ularni tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ va mahalliy byudjetning qo'shimcha mablag'lari hisobidan amalga oshirsin.

14. "O'zbekiston pochta" AJ bir oy muddatda kulolchilik mahsulotlarini xorijiy davlatlarga pochta jo'natmasi sifatida jo'natishda amalda belgilangan tarif stavkalariga 50 foizgacha chegirmalar taqdim etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritсин.

15. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda uch oy muddatda

kulolchilik mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda sotish va sotib olish yuzasidan yagona platformaning ishga tushirilishini ta'minlasin.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda kulollarga marketing sohasida doimiy amaliy yordam ko'rsatsin va ularning mahsulotlari elektron tijorat (E-commerce) yo'nalishida keng qo'llaniladigan Internet jahon axborot tarmog'i veb-saytlari orqali sotilishida zarur tashkiliy ishlarni yo'lga qo'ysin.

16. Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti, Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda:

kulolchilikda ishlatiladigan tuproq turlari zaxiralari mavjud erlarning manzilli ro'yxatini shakllantirsin;

kulollar uchun zarur tuproq turlari karerlaridan foydalanish tartibini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

17. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari "Hunarmand" uyushmasi, Savdo-sanoat palatasi va Badiiy akademiya bilan birgalikda bir oy muddatda "Eng mohir kulol" shiori ostida ko'rgazma-tanlovni o'tkazish bo'yicha tartib ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

An'anaviy kulolchilik san'ati ustalari, san'atshunoslar, arxeologlarni jalb qilgan holda kulolchilikni chuqur ilmiy o'rganish, xalqaro kulolchilik gildiyalari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish hamda jahon talablariga mos sifatli mahsulotlar tayyorlashni targ'ib qilish maqsadida Hunarmand uyushmasi qoshida "An'anaviy kulolchilik ustalari Kengashi" tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

18. Madaniyat vazirligi Qurilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda tarixiy obidalarni ta'mirlash ishlariga kulol (koshinpaz)larni keng jalb qilish choralari ko'rsin.

19. Farg'ona viloyati hokimligi, Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi ikki oy muddatda:

Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Badiiy akademiya bilan birgalikda Rishton shahrida "Xalqaro kulolchilik festivali" hamda festival doirasida "An'anaviy kulolchilikni saqlash va uni rivojlantirish: muammo va echimlar" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyaning tashkil etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda Rishton tumanida tashkil etiladigan kulolchilik markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida logistika markazi va laboratoriya tashkil etish hamda klaster tizimini joriy qilish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

20. Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "O'zbekkino" Milliy agentligi, "Hunarmand" uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari kulolchilik mahsulotlarini keng targ'ib qilishda shaxsan mas'ul ekanligi belgilansin.

Bunda:

o'zbek milliy an'anaviy kulolchilik tarixi, uning taniqli namoyandalari ijodiy faoliyatini yoritish hamda keng targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop asarlarni yaratish, nashr etish va hujjatli filmlar ishlash;

kulolchilik tarixi hamda bugungi rivojini keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish;

hududlarda kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ular milliy iftixor ramzi sifatida har bir xonadonga kirib borishini ta'minlash yuzasidan targ'ibot olib borish;

dunyoning etakchi ommaviy axborot vositalari orqali O'zbekistondagi an'anaviy kulolchilikka ko'rsatilayotgan e'tiborni keng yoritish, ushbu yo'nalishdagi reklama roliklarini tayyorlash va namoyish etish bilan xorijiy turistlar oqimini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilsin.

Mazkur qarorning mazmun-mohiyati, markazlarning tashkil etilishi bilan bog'liq amalga oshirilayotgan ishlar ommaviy axborot vositalarida keng yoritilsin.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-son qarori 9-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"AT Xalq banki, "Mikrokreditbank" ATB va "Agrobank" ATB ushbu manbalar hisobidan "Hunarmand" uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, "usta-shogird" maktablarini tashkil etish, uy-muzeyi va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun 36 oygacha muddatga hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan oshmaydigan holda, bazaviy hisoblash miqdorining 250 baravarigacha, Uyushmaning Toshkent shahrida faoliyat yuritadigan a'zolariga esa, istisno tariqasida, bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravaridan oshmaydigan miqdorda kreditlar ajratsin".

22. Savdo-sanoat palatasi "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

23. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH.Mirziyoyev

I BOB. KULOLCHILIK SAN'ATI TARIXI, RIVOJLANISHI



Xalq amaliy bezak san'atida kulolchilikning tutgan o'rni. Mustaqillik yillarida kulolchilik maktablari va markazlarining rivojlanishi. O'zbekistonda kulolchilik san'atiga ijod qilayotgan yetuk ustalar faoliyati

Xalq amaliy bezak san'atida kulolchilikning tutgan o'rni

Markaziy Osiyo, qadimda Turon, Turkiston va Movarounnahr nomi bilan atalgan xususan O'zbekiston amaliy san'at asarlariga boy hudud hisoblangan. Bu o'lka o'ziga xos uzoq tarixga ega bo'lib Rim, Vizantiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Sharq va G'arb mamlakatlari aro madaniy aloqalar savdo-sotiq almashuvi bo'lgan. Sirlangan kulolchilik O'zbekistonda, ma'lumotlarga ko'ra, VII asr oxirlaridan Movarounnahrda paydo bo'lgan, lekin IX asr oxiri va X asr boshlarida yorqinroq rivojini topgan.

O'zbekistonda sirlangan kulolchilikning rivojlanish tarixini davrlashtirishda **uch bosqichga** bo'lib o'rganish mumkin:

Birinchi bosqich o'z ichiga – IX asr oxiri XIII asr boshlarini oladi, yangi islom davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi sababli sirlangan kulolchilik O'rta Osiyoda keng tarqaladi. Bu davrda mahalliy xalq Somoniylar va Qoraxoniylar hukumronligida edi. XIII asr boshlarida mongollarning bosqini sababli Movaraunnahrda siyosiy-iqtisodiy, madaniyat va san'atda inqiroz yuz tuta boshlaydi. Bu albatta kulolchilik sohasiga ham ta'sirini ko'rasatadi.

Ikkinchi bosqich – XIV-XVI asr siyosiy – iqtisodiy va madaniy hayot Movaraunnahrda ulkan va kuchli imperiyani tashkil etgan Amir Temur va uning sulolasini o'z ichiga oladi. Bu davrning sirlangan kulolchiligi, uzoq g'arb ta'sirida shakli, sifati jihatidan oldingi davrlardan farqlanadi. Temuriylar an'anasiga hos usul XVI asrgacham davom etgan.

Uchinchi bosqich – XVII asr boshlari XIX asrlarni oladi. Bu davrda O'zbekiston hududidagi uch xonlik – Buxoro, Qo'qon va Xiva kulolchiligida mahalliy maktablar shakllanishiga sabab bo'lgan. O'zbekiston kulolchiligi katta tarixiy yo'lni boshidan o'tqazganini hisobga olib, izlanishlar, uning har bir bosqichidagi rivojlanishlarni alohida guruhlar yordamida o'rganishlar olib borilgan. O'rta asr Movaraunnahr sirlangan kulolchilikning rivojlanishining ilk va

mongollargacha bo'lgan davrni, olimlar va arxeologlar tomonidan topilgan topilmalarning bo'laklarini avval Afrosiyob, keyin Xorazm, Farg'ona, Chag'aniyon va Choch maktabi asosiy qismlarini katta qiyinchiliklar bilan o'rganishgan.

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zalik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojni o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarix, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubiga ega. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxonda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillikni boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutaffakkirlar, ya'ni Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivovojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo chegarasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik maktablari tashkil bo'la boshladi.

O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislana bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan

bezay boshladilar. XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo'lsada, uning ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi, saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za kabilarni tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan bilganlar. Ular avval loydan idishlar yasab gulxanda qizdirib pishirganlar.

Inson kulolchilik bilan neolit davridan shug'ullangan. Maxsus loydan buyumlar yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishini ta'minladi. Kulolchilik bilan dastlab ayollar shug'ullangan, kulollik charxining paydo bo'lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalb qilingan. Idishlar maxsus o'choq va xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog'li xududlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud. Neolit davriga oid qarorgohlarida qazib topilgan qoldiqlari o'sha davrda idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanganligini ko'rsatadi (idishlar erga suqib qo'yilgan). Eneolit davrida sharq mamlakatlarida, Yunonistonda nafis sopol idishlar tayyorlash, sopoldan me'morlikda foydalanish avj oladi. Sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik buyumlarining badiiy qimmatini osha bordi.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devor-u toshlarga ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik ayrim sabablarga bilan tirik mavjudodni aks ettirish ta'qiqlab qo'yildi. Shuning uchun amaliy san'at o'rnini o'simliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi.

Rang-barang o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda

ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarni ajoyib naqshi nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar. Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan. Chunki, muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimda «Olloh go'zal va u go'zallikni sevadi», deyiladi. Demak, Islomning estetik nuqtai nazari go'zalikka oshno bo'lmoqdir. Olloh go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne'matlari ham go'zaldir. Ibrohim SHaqqiy aytadi: «Mavlo, ko'raylik, naylar, naylarsa go'zal aylar. SHunga muvofiq, Ollohnin g ism-sifatlarini vasf etuvchi so'zlarimiz, uning qudratini tamsil etuvchi binolarimiz, me'morlik obidalarimiz, qo'yingki, tangri irodasi, ism-sifati bilan bog'liq bu olamda nimaiki narsa bo'lsa, hammasi go'zal bo'lishi kerak. Arab imlosi, g'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, tasviriyl san'atning islmiy-tilsimiy turlari eshitish va ko'rish a'zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobig'iga o'ralgan. Naqsh – haqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas, go'zallikning mohiyatini anglash, shu go'zallikni dilda tasdiqlash, chodra ortidagi holatga o'zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...».

O'tmishning biror yorqin ziyo zarrasi asrlar zimistonini yoritishi mumkin. Mustaqillikka erishgan xalqimiz san'atshunoslaridan madaniy meros xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o'rganib mag'zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko'tarilib yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi g'oyat mas'ul va e'tiborli ishlar ko'lami kutib turibdi. O'zi bir olam bo'lgan me'morlik san'ati va u bilan chambarchas bog'liq xalq amaliy san'ati, xususan kulolchilik, naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalarini o'rganish

yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud. Ko'p yillik izlanishlar natijasida, tabiiyki, xalq me'morlari, xalq ustalari taomiliga xos anchagina muammolar bor, ulardan biri, bezaklarni ramziy o'qish alifbosi tuzilmaganligidadir.

O'zbekiston amaliy san'ati o'zining serqirraligi va rang-barangligi bilan ko'hna tarixni bezab turadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan yillarda ayniqsa, bu san'at yanada keng qanot yozmoqda va rivojlanmoqda. An'anaviy kulolchilik esa amaliy san'atda eng qadimgi turlardan hisoblanadi. Vaholanki, oddiy tuproqdan inson yaralgan va paydo bo'lgan davrdan boshlab hamroh bo'lib keladi. O'zining betakror shakli va naqshu-nigorlari bilan sayqallanib, avloddan-avlodga o'tib, an'ana sifatida mudom davom etib kelmoqda. Rishton an'anaviy kulolchiligi ham Respublikamizda o'zining moviy-feruza ranglari va nozik shakllari bilan ayniqsa insonni lol qoldiradigan naqshu-nigorlari bilan ajralib turadi. Aynan shu o'rinda ishqor siri texnologiyasini rishtonlik kulollarning faoliyatida, ishlab-chiqarish jarayonida, shuningdek an'anaviylikni saqlashda muhimligini va dolzarbligini ta'kidlash lozim. Bu ko'hna texnologiya sir-asrorlarini hozirgi kunga avaylanib etib kelishi fidokorlik ko'rsatgan mashhur usta kulol Ibrohimjon Komilov, usta kulol Amirali Yo'ldoshev, usta kulol Kimsanboy G'anijonovlarni eslamaslikni hech iloji yo'q. Ular hozirgi kunda an'anaviy kulolchilik sirlarini bizlarga etkazib berishda ya'ni yo'qolib ketayotgan san'at turlarini qayta tiklashda amaliy ravishda mehnat qilib qator shogirdlarni etishtirib berdilar. Lekin texnologik jihatdan murakkab bo'lgan ishqor siri bilan faoliyat ko'rsatayotgan ustalar soni hozirgi kunda ozchilikni tashkil eitishi bu salbiy hollardan biridir. Ishlab chiqarishda qo'rg'oshin sir bilan ishlash jarayonlari an'anaviy kulolchilikning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Vatanimizning ko'hna kulolchilik maktablarida saqlanib kelayotgan an'anaviyliklar albatta hozirgi kunda amaliy san'atning rivojlantirish pallasida ko'hna tarixdan ma'lumki, an'anaviy meroslardan chetga rivojlanib borishida, o'zining muhim o'rnini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, an'anaviylikni saqlab qolish har qanday san'at yo'nalishida o'ta muhim hisoblanadi. Chunki, an'anaviylik bu o'ziga xos mustahkam poydevordir. Vaholanki, ilg'or taraqqiyot davrida va globalashtiruv pallasida ko'hna tarixdan

ma'lumki an'anaviy meroslardan chetga chiqish va chekinish holatlari ham kuzatiladi.

O'rta Osiyoda sirlangan kulolchilik buyumlarini shakli ikki ko'rinishga ajralgan: **ochiq** va **yopiq**.

Ochiq ko'rinishdagilarga laganlar tarelkalar, tuvak ko'rinishidagi idishlar va piyolalar kirgan.

Yopiq ko'rinishdagilarga, baland va uncha katta bo'lmagan, sharsimon, to'laroq, ko'zalar, vazalar, turli shakldagi idishlar, tuvaklar va chiroqlar kirgan. Bunday bezakli kulolchilik buyumlarri tashqi tomoniga bezaklar berilgan yoki bo'yni, eni bo'ylab naqsh chizilgan. Ular asosan shaklli (geometrik) yoki o'simliksimon naqshlar, soddalashtirilgan qushlar surati tushirilgan. Yopiq ko'rinishdagi idishlar ochiq ko'rinishdagilarga nisbatan ko'proq ishlatilgan. Ularning ko'plab ishlab chiqarilishi asosiy qolipga olib kelib qo'ydi. Tarelka va kosalar bir biriga o'xshash hajmli va naqshlari ham biroz o'xshash bo'la boshladi. Asosan tekis va ochiq ko'rinishdagi tarelka va laganlar bo'lar edi, qalinligi yuqa yoki biroz qalinroq. Ba'zilar dumaloq shaklda. Tuvak ko'rinishidagi idishlar, yoki aksincha, yuzasi tekis laganlarga nisbatan, biroz balandroq va ichiga chuqurlashtirilgan. Laganlarning ichi chuqurroq bo'lgan. Piyolalar kichikligi bilan farq qilar, naqshlari faqat ichiga tushurilar edi. O'zbekiston hududida IX-XIII asrlarda ochiq ko'rinishdagi kulolchilik buyumlar ichiga va chetlariga chiziqlar chizilgan. Yopiq idishlarga aksincha tepasiga chiziqlar chizilgan. Bu ikki xil shakldagi idishlarga naqshlar tushirilgan. Yopiq idishlar ko'pincha shar shaklida yasalgan. Bo'yin qismi biroz qalinroq, ba'zilariga ushlagichlar ham qo'yilar edi. Idishlarning tashqi ko'rinishini naqshlar bilan bezatilardi. Chiroqlarning hajmi uncha katta bo'lmagan, ushlagichlari har-xilligi bilan ajralib turardi. Ba'zi idishlar banka ko'rinishida, ularga asosan epigrafik naqshlar tushirilgan.

Mustaqillik yillarida kulolchilik maktablari va markazlarining rivojlanishi.

O'rta Osiyo IX asr - XIII asr boshlarida Afrosiyob (Samarqand), Buxoro, Choch(Toshkent), Farg'ona, Xorazm yirik kulolchilik ishlab chiqarish markazlari hisoblangan. Bu davrda Samarqand sirlangan kulolchiligi nisbatan ancha mashhur hududlardan biri bo'lgan. Afrosiyob shaharchasida olib borilgan arxeologik ishlarga ko'ra, bir guruh kulol-ustalar bo'lganini, mahsulotlarni ishlab chiqarish yaxshi

rivojlangani, sifat jihatdan ham yuqori bo'lganini ko'rsatadi. X asr Afrosiyob kulol ustalarning mahorati sifatli rangi, shakli – shamoili va badiiy naqshlari bilan ajralib turardi. Bu mahsulotlarda qushlar, hayvonlarga o'xshash chizmalari yaxshi tushurilgan. Ko'rinish va yahlitlik jihatdan aniq, hudi ko'p yillar davomida naqshlar soddalashgan (stilizatsiyalashgan). XI-XII asrlar O'zbekiston hududida ayniqsa sirlangan kulolchilik ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Bu davr sopol buyumlari nixoyatda sifatli bo'lib, chet mamlakatlarga ham olib chiqilgan.

XI-XII asrlar O'zbekiston hududida sirlangan kulolchilik byumlari bezagi yanada taraqqiy etadi. Bu davrda asosan, epigigrafika, islimiy hamda geometrik naqshlar keng qo'lanilgan.

Arxeologlar uchun kulolchilik huddi tarixshunoslarning ish faoliyatiga o'xshaydi. Kulolchilik topilmalari asosan inson turmush tarzidagi ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. O'zbekiston xududida Neolit va Bronza davrlarida o'zining yuqori bosqichlariga ko'tarildi. Bu davrga kelib naqshlarga bezak berish, ilk kulolchilik asoslarini devoriy sur'atlardan ta'sirlanib yaratilgan. Kulolchilik hunarmandchilikning loy(gil)dan turli buyumlar (terrakota sopol idish, qurilish materiallari va boshqa) tayyorlaydigan turi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqlardan turli xil kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Loy qancha ko'p pishitilsa sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Inson kulolchilik bilan Neolit davridan shug'ullangan. Maxsus loydan buyumlar ko'lda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarida kulolchilikning keng tarqalishini ta'minlaydi.

Bir necha yil ilgari sopol idishlarni qo'lda an'anaviy tayyorlash urf bo'lgan Toshkenda sanoat buyumlarini ommaviy ishlab chiqarishga o'tildi. 50-yillarda Toshkent yirik sanoat markaziga aylandi va O'rta Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan chinni zavodi ish boshladi. Natijada Toshkentning oq-qora rang aralash qizil-jigarrang tusli sopol idishlari yo'qolib ketdi. Raximovlar sulolasining to'rtinchi vakili Muhiddin Rahimov kulolchilikning ko'p asrlik an'analari uzilib qolmasligi uchun bor imkoniyatlarini ishga solib xalq ijodining bu turini rivojlantirdi. U kulollik an'analarni yangicha ijodini o'ziga xos tajriba sinovi sifatida ham qarash mumkin: XIX asr oxiri XX boshlaridagi O'zbekiston kulollik san'atining turli maktablari ularning o'ziga xos sirlari, qadimgi

Kushon davri sopol buyumlari, O'rta asrdagi Afrosiyob va Temuriylar davri oq-moviy kulollik namunalari texnik jarayonlari hamda badiiy bezak tizimini o'rganib, Muhiddin Rahimov mohiyat e'tibori bilan o'zbek kulollik san'atining boy an'alariga yangicha hayot bag'ishladi. Ijodkorning an'anaviy kulollikka o'zining shaxsiy tajribalarini uyg'unlashtirishi natijasida individual ijod mevasi paydo bo'ldi. Sharqda kulollik hunarining qadim-qadimdan borligini faqatgina amaliy ehtiyoj bo'lganligi boisi emas. Sopol buyumlar asosiy tabiiy manbalar bo'lmish loy, suv va olov bilan bog'liq bo'lganligi sababli kulol timsoli ijodkorni ulug'lovchi, qandaydir muqaddas bir mazmun beruvchi ramziylik kasb etadi. Kulol hunaridagi xuddi mana shu ijodiy faoliyat O'zbekistondagi eng etakchi kulollardan biri O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zosi, Republikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Akbar Rahimov uchun bosh mezon hisoblanadi. Uning sopoldan yasalgan asarlari otasi usta kulolzoda Muhiddin Rahimov tomonidan o'rganib, avaylab asralgan kulollik hunari an'alarini yanada ijodi ravnaq toptirish yo'lida xizmat qiladi.

O'zbekiston amaliy san'atning qadimiy, shuningdek, bizning davrimizgacha o'zining aniq cheralangan maktab hamda an'alarini saqlab kelayotgan turlaridan biri badiiy kulolchilik xisoblanadi. Zamonaviy kulolchilik san'ati XIX asrda tarixan shakllangan maktablarning an'anasi asosida rivojlanib kelmoqda. Ma'lumki, o'zbek kulolchilik san'ati qadimiy davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirib kelgan, muhim kasb-hunar sohasidir. O'zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun eng kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan. O'zbek kulolchiligi ikki turga: sirkor va so-pol kulolchilikka bo'linadi. Hozirgi kunda kulolchilik markazlari Respublikaning Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, G'ijduvon, Rishton, Qo'qon, G'urumsaroy, Kasbi, Uba, Denov, Madir, Yangi ariq kabi shaharlarida joylashgan. Farg'ona vodiysi va Xorazm sopol buyumlari ko'k-oq-yashil ranglarda tovlansa, Samarkand, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro sopoli jigarrang-sariq tusda tovlanadi.

Naqshinkor bezaklarning qo'llanilishi va talqinida an'alarining rang-barangligi namoyon bo'ladi. Kulollar buyum yasashar ekan, naqshinkor rasm, rang va shaklning murakkab nisbatini nozik his etishadi. Buni mashhur kulol ustalardai A.Muzaffarov, M.Oblokulov,

R.Matchonov, I.Komilov, X.Sotimov, M.Razimovning muzey to'plamlarida saqlanayotgan asarlarida yaqqol ko'rish mumkin. Rishton va G'urumsaroy kulollarining ijodi nozik islmiy naqshlari bilan ajralib turadi. Shu naqsh uzra ro'zg'or buyumlari va atrof muhit elementlari — ko'za, pichoq, anor va bodom mevalari tasviri tushiriladi. Xorazmning ko'k, oq, yashil rangli sopoli me'moriy qoplama kulolchilik (mayolika) bilan bezatiladi. Unda ko'k yoki yashil fondagi oq chirmoviq tasvirlanadi. Islmiy naqsh handasaviy shakllar bilan hoshiyalanadi.

Toshkent, Buxoro va Samarqand kulolchiligi alohida ranglari va bezash usullari bilan ajralib turadi. Unda nuqtali va sariq-yashil rangdagi bezak islmiy naqshi bilan yo'g'rilib ketadi. Idishlarda anor mevasi, tovuş patisimon gullab turgan shoxchalar tasvirlanadi. Xalq ustalari mo'yqalamda naqsh chizish bilan birga o'yma, kesma hamda bosma naqshdan ham foydalanishgan va hozir ham foydalanib kelishmoqda.

O'zbekistonda mayda dekorativ sopol kulolchilikni Vobkent O'ba, Kasbi, Samarqand kulollari tomonidan ertaklar olamidan olib yasalgan an'anaviy o'yinchoqda ko'rish mumkin. Hamro Rahimova va Anbar Sattorova yaratgan g'aroyib xushtaklar, fantastik fillar, Abdurahim Muxtorov va Vohid Ilhomov yasagan, lirik yumor va mug'ombirona tabassum bilan yo'g'rilgan haykalchalar xalqning yorqin va quvnoq bezakka hamda fantaziyaga mehri balandligidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda badiiy bezatish uslubi plastik va texnologik xususiyatlari bo'yicha uchta asosiy kulollik maktablariga bo'lish mumkin: Toshkent; Farg'ona badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari - Rishton, G'urumsaroy); Buxoro - Samarqand badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari - Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba, Shaxrisabz); Xorazm badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari Madir va Kattabog' qishloqlari).

XIX asr O'zbekiston, Tojikistonning ba'zi hududlari (Chardjou) Markaziy Osiyoning chuqur tarixiy an'analarga ega bo'lgan kulolchilik maktablari mavjud edi. Ulardan: markazlashtirilgan yoki Buxoro-Samarqand maktablari Samarqand markazida, Urgutda, Buxoroda, G'ijduvonda, Shaxrisabzda, Toshkentda, Kitobda, Kattaqo'rg'onda, Denov va boshqa yerlarda. Shimoliy-sharqiy yoki Farg'ona, Rishtonning markaziy maktablari, G'urumsaroy, Xo'jant, Chorsu, Andijon; Janubiy-g'arbiy, yoki Xorazmning, -Urganch, Xiva, Madar va

Kattabog‘ vohasi. Har bir markazlardagi sirlangan kulolchilik, o‘zida saqlagan holda sayqallashtirilgan umumiy rivojlanish tendensiyasini boshidan o‘tqazdi.

Farg‘ona - badiiy kulolchilik maktabining asosiy xususiyatlari uning aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog‘liqligidadir.

Rishton – Farg‘ona maktabining an‘analarining o‘zida mujassamlashtirgan eng yorqin kulollik markazidir. Keyingi 30-yil ichida (1970 yillardan boshlab). Rishton sopoli an‘anaviy badiiy va texnologik usullar asosida qayta tiklandi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rishton-O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri edi. Ishqorli sir tayyorlash ham yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi vaqtda bu yerda sopol buyumlarning yapaloq (kosalar, laganlar) va uzun bo‘yli (ko‘zalar, xumlar) turlari ishlab chiqarilmoqda.

Ilgari ishlar ixtisoslashgan tarzda bajarilardi. Yapaloq buyumlari, ya‘ni yapaloq va qisqa bo‘yli shakllar yasovchi ustalarni kosagar; baland bo‘yi chizilgan buyumlarni yasovchi ustalarni - ko‘zagar deyishgan. Hozir bunday ta‘riflash ilgarigi mohiyatini yo‘qotgan; ayrim ustalar (I.Kornilov, U.Ashurov, X.Sattorov, K.Qosimov, M.Azizov, A. va M.Tojaliyevlar va boshqalar) ham yapaloq, ham cho‘zinchoq shaklli idishlarni yasashadi. Ayni paytda bir qator kulollar, asosan, o‘rta va yosh avlod vakillari (Sh.Yusupov, A.Nazirov, A.Isoqov, A.Usmonov, M.Saidov, R.Usmonov va boshqalar) ko‘proq yapaloq idishlar - laganlar yasash bilan shug‘ullanadi.

G‘urumsaroy - o‘zining g‘aroyib havorang sopoli bilan mashhur bo‘lgan Farg‘ona maktabining yana bir markazida G‘urumsaroyda ilgarilari minglab ustalar ishlagan. 1990 - yillarning boshida bu erda faqatgina bir usta Maqsudali Turopov qolgan edi. G‘urumsaroy kulolchilik markazida Farg‘ona maktabining qadimiy kulollik an‘analari ko‘p darajada saqlanib qolgan. Bu sopol buyumlarning ishlanish texnologiyasidan badiiy bezatish jarayonigacha namoyon bo‘ladi. G‘urumsaroy bezaklari Rishton kulollik markazi bezaklaridan ishlanish uslubining alohidaligi bilan ajralib turadi. G‘urumsaroy sopol buyumlarida bezakning maxobatlik, oydinlik va soddalik xosdir. Yana bir o‘ziga xos xususiyati bu bezaklarning uzoq o‘tmishga taalluqli (arxaik)ligigidadir. Odatda bu naqshlar ko‘p emas, asosan uch - to‘rt xil quydagi yo‘sin o‘zgarishlarni uchratish mumkin G‘urumsaroy sopol

buyumidagi ko'k moviy, lojuard, zangori hamda jigar rang bo'yoqlar gammasi G'urumsaroy ustalarining an'anaviy ishqorli sirdan foydalanilganligidadir.

Buxoro-Samarqand kulollik maktabining o'ziga xosligi texnologik omil bilan bog'liqdir. Idishlarning jarangdor nafis bo'lib chiqishida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'toqlar muhim o'rin egallaydi. Buxoro-Samarqand badiiy kulolchilik markazlari uslubining ichki omillari ko'proq —Afrosiyob sopoli an'analariga asoslanadi: Buxoro - Samarqand kulolchiligida o'simliksimon naqshli bezak turi etakchilik qiladi. Sopollarni bezashda hayvon va jonivorlarning tasviri ham kam ishlatiladi. Ular asosan G'ijduvon kulolchiligida qo'llaniladi.

Buxoro kulolchilik maktabining G'ijduvon markazi vakillari Alisher va Abdulla Narzullayevlar kulollar avlodining oltinchi bo'g'ini hisoblanadi.

Kulollar tomonidan yasalgan tovoq, duobi kosa, mashadi kosa, ko'za, naqshin tovoqlar bilan birga, ularning ijodida 60 dan ortiq an'anaviy shaklga rioya qilish xususiyatlari xosdir. G'ijduvon kulolchiligining o'ziga xos jihatlaridan biri, unda hayvonlar tasvirining qo'llanilishidir. Ko'pincha ustalar lagan o'rtasiga tovusning soddalashtirilgan tasviri yoki uning dum qismini joylashtirishadi.

Xorazm kulolchilik maktablarida yasalgan badiiy buyumlar o'ziga xos badiiyligi, bezaklari rangi va ishlanish uslubi bilan O'zbekistonning boshqa maktablari ishlab chiqarayotgan buyumlardan ajralib turadi. Xorazmda chuqur sopol tovoq - badiya qadimdan saqlanib kelayotgan milliy shakldir. Xorazm kulolchiligida naqshlarning turlari unchalik ko'p emas. Ular asosan, geometrik va o'simliksimon bezakli naqshlardir. Ba'zan hayvon va jonivorlar tasviri ham ishlanadi. Darhaqiqat, badiiy buyumlarning markaziy qismiga geometrik arabeska girix tushirish Xorazm ustalarining o'ziga xos uslublarining biridir. 1990-yillarda Xorazm ustalarining ijodida qadimiy o'simliksimon naqshlarni o'zlashtirish jarayoni kuchayib bordi. Ayniqsa, bu jarayon Xorazm kulolchilik maktabining yirik vakillaridan biri R.Matjonov ijodida namoyon bo'ldi. R.Matjonov (Modir markazi) ko'pincha sopol buyumlariga to'k ko'k rangni ishlatadi. Shuning uchun ham uning asarlarining aksariyatida havorang - ko'k yoki rangning o'ziga xos to'q tusi ustunlik qiladi. S.Otajonov (Kattabog' markazi) esa to'q ko'k rangni kam ishlatadi, buyumlariga

ko‘proq oq angobdan foydalaniladi, shuningdek bo‘yoq tarkibiga un qo‘shadi. Shu bilan birga, bugungi kunda Xorazm kulolchilik maktabida davomiylik muammosi birinchi o‘rinda turibdi (ya‘ni shogirdlik maktablari muammosi).

O‘zbekistonda kulolchilik san‘atiga ijod qilayotgan yetuk ustalar faoliyati

Kulolchilikni turmush tarziga tatbiq etishda O‘zbekiston xalq rassomi, san‘atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o‘ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san‘atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.



Muhiddin Rahimov — Toshkent kulolchilik maktabining mashhur kulollaridan biri (1903). Kulol, san‘atshunos, Rassomlar uyushmasining a‘zosi, O‘zbekiston xalq rassomi kulolchilik hunarini qarindoshlaridan o‘rgangan. Turkiston xalq xo‘jaligi kengashi qoshidagi Toshkent badiiy hunarmandchilik maktabi (1918—1920), Moskva Silikatlar instituti (1924—1926) da va Leningrad Keramika instituti (1927-1929) da o‘qigan.

U Samarqand va Toshkentdagi qadimiy me‘morchilik yodgorliklarini ta‘mirlashda qatnashdi. Raximov ijodida an‘anaviy o‘zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sopolchilik uyg‘unlashgan. Ijodining dastlabki davrida yaratgan buyumlari (yirik shaklli erkin hamda quyuq bo‘yalgan naqsh bezaklari) da yorqin zamindagi ko‘k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya hosil qiladi. O‘rta asrlar kulolchiligini yaxshi o‘rgangan Raximov an‘anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretli sovg‘a buyumlar yaratdi, ularning bezagida o‘simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mazmun, hayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalandi. Sopol materiali va bo‘yoqlarini o‘rganish yo‘lidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keldi, masalan, 1961 yilda rus tilida «Xudojestvennaya keramika Uzbekistana» asari va boshqalar. U Hamza nomidagi san‘atshunoslik institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan (1965—1971), Toshkent teatr va rassomchilik san‘ati instituti (1958—1961) va P.Benkov nomidagi badiiy bilim yurtida dars bergan (1952—1976). Raximov yaratgan sopol buyumlar Moskvadagi Sharq

xalqlari san'ati muzeyi, Leningraddagi SSJI xalqlari etnografiyasi muzeyida, O'zbekiston davlat muzeylarida saqlanadi. U Hamza mukofoti laureati (1977), Mehmat qizil bayroq ordeni bilan mukofotlangan. Muhiddin Raximov – kulol usta, san'atshunos olim. O'zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti laureati, San'atshunoslik fanlari nomzodi Muhiddin Raximov Toshkentdagi kulollar shajarasining to'rtinchi avlodi edi. Uning sa'y-xarakatlari tufayli o'zbek kulolchiligining ko'p asrlik an'analari avaylab asraldi va yangi hayotga yo'llanma oldi. Muhiddin Raximov O'zbekistonda XIX asr oxiri, XX asr boshidagi turli xil xalq kulolliги maktablarining badiiy-texnik xususiyatlarini, keyinchalik qadimgi kushon davri sopol buyumlari. «Kushon Majmuasi» dekorativ idishlari (1975) Loy, pardoqlangan. O'zbekiston janubida qadimshunoslar tomonidan topilgan Kushon kulolligiga oid buyumlarni ta'minlay turib, Muhiddin Raximov ularning oxangida katta go'zal turkum yaratib, bu sopolchilikka yangi hayot baxsh etdi. Afrosiyob O'rta asr kulolchilik san'atini, Temuriylar davridgi oq - moviy sopollarni o'rganib, o'zbek kulolchiligi sohasida o'ziga xos qomus yaratdi. «Gulisafsar» dekorativ lagan (1980). Loy, angob, tuzlar, sirlangan, nakshli. So'nggi turkum ishlaridan biri. Temuriylar davri kulolchiligiga oid ko'k - qora rangdagi kompozitsiyalar bo'lib, M.Raximov ular ustida qizg'in ishlagan edi. Usta astoydil ter to'kib, uncha katta bo'lmagan parchadan umumiy kompozitsiyani tiklardi, keyin esa tiklangan kulollik namunalari asosida butunlay yangi ijodiy asarlar yaratdi.



Muhiddin Raximov ijodiy ishlaridan

Muhiddin Raximov an'anaviy kuloliikka sodiq qolgan holda, ayni o'z davrining san'atkori sifatida turli xil uslub va yo'nalishlardan ishlash xuquqini yoqlab chiqdi. Qadimgi va O'rta asr kulollik san'ati namunalarini o'rganib, ta'mirlagani xolda ular asosida XX asr O'zbekiston kulolligi san'atida mahalliy sopol an'alariga yangicha ohang berib, mustaqil va samarali yo'nalish yaratdi. Muhiddin Raximov 1956 yildan boshlab 1985 yilgacha kundalik tutgan. Ushbu kundalikda usta kulol naqshlarning turli xil bezaklarini va o'zini yaratgan ranglarini tayyorlash tarkiblarini yozgan. Ko'p hollarda ustalar kundaliklar tutishmaydi. Natijada o'zlari kashf qilgan kashfiyotlarini yozib qoldirmaydilar. Keyinchalik bu ularni farzandlari uchun noqulaylik tug'diradi. Raximovlar sulolasi uchun esa bu kundaliklar o'z samarasini bergan va shu kundaliklar asosida ijod qilishgan. Muhiddin Raximov naqsh va bezaklar nomlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. «Xudojestvenniye keramika» («Badiiy kulolchilik») kitobini so'nggi sahifalarida shu izlanishlar natijasida olib borgan naqsh va bezaklar nomlarini, uslublari bir-biridan farqlarini, ishlatilishini yozgan. XX asr uslubuni klafikatsiyasi ko'rsatilgan O'zbekiston kulollari kartatekasini yaratgan. Bunda qaysi kulol, qayerda tug'ilgan, nima ish qilgan, qanday yangiliklar yaratganligi haqida ma'lumotlar yozilgan. Kitobni asosiy mazmuni shundan iborat. Kitobni bosh sahifalarida jadval tuzilgan bo'lib, bu jadvalda yangidan-yangi naqshlarning nomlari, turlarini, ishlatilishini yozgan hamda kitob so'ngida atamalarni ham yozib keltirgan. Muhiddin Raximov ishlari shu bilan diqqatga sazovorki, ularda andozaviy, an'anaviy va jamoaviy yo'ldagi san'at bilan ijodiy o'ziga xoslik samarasi bo'lgan izlanishlar omuxtalashib ketgan. Muhiddin Raximov ijodida kuyidagi uslublarni ko'rishimiz mumkin: qadimgi Kushon uslubi, Antik davr kulolchiligini qayta tiklagan. Afrosiyob kulolchiligi, Qadimgi Samarqand X-XI-XII asrlar. Muhiddin Raximov Samarqand kulolchiligini 1930-1933 yillarda o'sha yerda yashab, ta'mirlash bo'yicha ish olib borib mukammal o'rgangan. Registondagi Tillakori madrasasi ichida ustaxona tashkil etilgan. O'sha paytlarda tabiiy bo'yoqlar to'xtatilib uni o'rnini kimyoviy bo'yoqlar egallaydi. Lekin bu kimyoviy bo'yoqlar (rang)lar bizni iqlimga to'g'ri kelmaydi. Natijada ustalar yana o'sha tabiiy bo'yoqlardan foydalanishadi. Temuriylar davri kulolchiligi - yolg'on chinni kulolchiligi. Toshkent kulolchiligi XII – XIII asrlar. 1933-yildan M.Raximov Toshkentga qaytadi. O'z vaqtida usta kulolni

orzusi «Kulolchilik maktabini» ochish bo'lgan. M.Raximov O'zbekistonda chinni ishlab chiqarish sohasiga o'z hissasini qo'shgan. 1950 - yillardan M.Raximov Lomonosov zavodida ilk chinni «forfor chini» yaratdi. Shundan keyin 1952 - yillarda Toshkentda ilk bor paxta naqshi (ommalashishi uchun) topilgan. Siyosatga mos bo'lgani uchun ham paxta naqshi davom etgan va bu naqshlardan xozirgacha foydalaniladi. Keyinchalik Farg'onada chinni ishlab chiqarish rivojlanadi. M.Raximov ijodida yangilik yaratib, olovga chidamli «selikat g'ishtlar» ishlagan. Bu g'ishtlar kimyo sanoatida ishlatiladi. Kislotaga ham chidamli. Oltin yuvish sanoatida ham ishlatiladi. M.Raximov 1961 - yil «O'zbekiston kulollar san'ati» kitobini yozgan. Shunda ham M.Raximov Toshkent kulolchiligini yangi qirralarini ochishga erishdi. M.Raximov arxitektura kulolchiligi bo'yicha ham ilmiy-amaliy izlanishlar olib borgan. Bunda XV – XVI asrlar sopol koshinlarni ta'mirlash va uni arxitektura qo'llash bo'yicha ish olib borgan. Bunda asosiy maqsad ranglarni iqlimga chidamliligini, tabiiy ranglardan sun'iy ranglarni farqlarini va qaysi biri ustunligini ilmiy darajada isbotlab bergan. Hozirda bu izlanishlarni M.Raximovning farzandi Akbar Raximov hamda nabirasi Alisher Raximovlar davom ettirishmoqda.

Raimberdi Matchonov — Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak sanatida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijoi, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlar kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari, koloriti, dinamikligi kishilarga estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan-avlodga an'ana tariqasida o'tib, hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ana shunday badiiy kulolchilik an'anasini davom ettirib kelayotgan Xorazm kulolchilik maktabiniig yirik vakillaridan biri Rahimberdi Matchonovdir. Rahimberdi Matchonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909-yili kulollar oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq kulollar ishlar edi. Koshin pishirishda o'sha davrda nom qozongan ustalar Usta Bolta Matrizayev, Bolta Vaisov, Matchon Qulmatovlar bor edi. Matchon kulolning o'g'li Rahimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har xil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik esa koshinni

o'rgandi. Kulolchilik sir-asrorlarini olti yil deganda o'rganib, Eshim kulolning fотиhasini oldi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi. 1930 yili R.Matchonov badiiy artelga ishga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O'sha davrda kulollar juda kamayib ketgan edi. Uning bu og'ir ishlariga turmush o'rtog'i yordam berardi. Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. U shu o'rgangan naqshlarini kulollik buyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX asr Xiva koshinkorlik an'analarini boyitadigan buyumlarni yaratdi. Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chiziladi, unga sir berilib oftobda quritilib xumdonda qizdiriladi. Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqumga borib, chog'on yoki qirchoq yig'ib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartiradi. O'sha qum poroshogini suv bilan aralashtirib, sovutiladi hamda tozalanadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi. Kulol Raimberdi Matchonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, tog'ora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi.



Alisher Narzullayev - zamonaviy O'zbekistonning taniqli va tan olingan kulolchilik ustalaridan biri 1953-yilda tug'ilgan. Samarqand arxitektura-qurilish institutini muvaffaqiyatli tamomlagan. Alisher Narzullayev qayerda ishlamasin, uni kulolchilikka bo'lgan havas tark etmasdi. U butun bo'sh vaqtini kulol dastgohi yonida o'tkazdi va oxir-oqibat bu hunarni jiddiy va professional tarzda olib bordi va ajoyib natijalarga erishdi.

Usto Alisher Narzullayev "Xalqaro Usta" sertifikatini (xalqaro magistr) sohibi. Uni shaxsan YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayor taqdim etdi. Shuningdek, "Ofarin" va "Tashabbus – 98" professional tanlovlari g'olibi, "Oltin medal" va O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti mukofoti – “Tiko” avtomashinasi bilan taqdirlangan. 2002-yilda O‘zbekiston birinchi Prezidentining farmoni bilan Alisher Narzullayevga “O‘zbekiston xalq ustasi” faxriy unvoni berilgan, 2003-yilda esa O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi bo‘lgan.

Usto Alisher Narzullayev yaratgan san’at asarlari naqshlarning eng boy rivoji, ularning ijrosidagi nafosat va nafislikka ega. Gul va o’simlik naqshlari ayniqsa jonli va ishonarli talqin qilingan. Uning asarlarida yuksak mahorat va badiiy ifodalilikni his qilish mumkin. Alisher Narzullayev O‘zbekistonda, xorijda o‘tkazilgan yuzdan ortiq ko‘rgazma va vernisajlar, jumladan, “Expo – 2000” Butunjahon ko‘rgazma-yarmarkasi ishtirokchisi. A.Narzullayev asarlari Komatsu va Tokio, Nyu-York va Vashington, Gannover, Bonn va Berlin, Parij va dunyoning boshqa mashhur shaharlarida bevosita ishtirokida namoyish etildi.

Alisher Narzullayev 1999-yilda Yaponiya taraqqiyot jamg‘armasi taklifi va Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchisi janob Koichi Obata tavsiyasiga ko‘ra Quyosh chiqayotgan mamlakatga tashrif buyurib, bu davlat xalqi madaniyatini o‘rgangan, olti oy davomida o‘zbek madaniyatini targ‘ib qildi. Unga mashhur yapon kulolchilik ustalaridan biri, Yaponiya kulolchilik assotsiatsiyasi prezidenti Asakura Isokichi Sandaimening ustaxonasida ishlash baxti nasib etdi.

2002-yilda Usto Alisher Narzullayev Germaniyada bo‘lib, u yerda ham nemis ustalarining tajribasini o‘rganib, o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashdi. Mashhur kulolchilik ustalari, jumladan Usto Alisher o‘z asarlari ko‘rgazmalarida kulolchilik dastgohlari ortida, keng tomoshabinlar oldida turib, o‘zlarining yuksak professional mahoratlarini barchaga namoyish etganlari kasbiy tajriba almashish maqsadidagi bunday ijodiy sayohatlarning eng esda qolarli epizodlari bo‘ldi. Alisher Narzullayevning asarlari dekorativ-amaliy san’at muzeyi va Davlat tarix muzeyida, Jahon banki muzeyi va Sharq madaniyati muzeyida, Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi muzeyida, shuningdek Germaniya, Yaponiya, AQSh, Shveytsariya va boshqalardagi muzeylar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda.

Narzullayevlar sulolasining ham butun O‘zbekiston xalq amaliy san’ati kabi taraqqiyot istiqboli katta. Asrlar davomida tarbiyalangan xalq didi, dekorativ san’atning eng boy an’analari, iste’dodli odamlar – keksa, tajribali hunarmandlar, yosh, allaqachon muvaffaqiyatli ishlayotgan va juda yosh, hunarni o‘rganishga va o‘zlashtirishga

ishtiyoqmandlar – bularning barchasi kelgusida rivojlanish uchun ob’ektiv qulay muhitdan dalolat beradi.

Ajdodlardan qolgan kulolchilik buyumlarini sinchiklab o’rganish va ularni o’tgan asrlar an’alarini bevosita davom ettiruvchi zamonaviy kulolchilik buyumlari bilan qiyoslash yangi davr kulolchiligi Narzullayevlar sulolasining eski mahalliy an’ana va an’alarini davom ettirib, rivojlantirayotganini aytishga asos bo’ladi.



Abdullo Narzullayev – 1963-yil 22-oktyabrda Buxoro viloyatining G’ijduvon shahrida hunarmand oilasida tug’ilgan. 1990 yilda Buxoro Davlat Pedagogika institutini tugatgan. Abdulla Narzullayev-G’ijduvon kulolchilik maktabi an’alarining davomchisi, Narzullayevlar sulolasining oltinchi avlod vakili.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko‘ra Respublika «**Hunarmand**» uyushmasi a’zosi, kulol, Narzullayev Abdullo Ibodullayevich «**O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi**» faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Aytish lozimki, Abdullo Narzullayev yaratgan kulolchilik buyumlariga mahalliy va chet ellik ixlosmandlarda katta qiziqish ortib, milliy san’at namunasi sifatida yuqori baho berilgan. U 100 ga yaqin xalqaro ko‘rgazma va tanlovlarda muvafaqqiyatli ishtirok etgan va ishtirok etib kelmoqda. 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akdemiyasiga a’zo bo‘lgan. 1997-yildan buyon esa O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi a’zosi.

Abdullo Narzullayev hozirgi kunda saralangan ijodiy asarlari dunyoning 50 dan ortiq davlatlarida, jumladan: AQSH, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Pokiston, Shveysariya, Avstriya va boshqa qator davlatlarda namoyish etib kelinmoqda. Ishqor siri tayyorlash texnologiyasi bir necha yillardan beri yo‘qolib, G’ijduvonda ustalar deyarli bunday sirni qo‘llamay qo‘ygan bir paytda 10 yillik izlanishlari va tajriba natijasida G’ijduvon an’anaviy kulolchiligi maktabida yana ishqor siri qo‘llanila boshlandi. Hozirda o‘nlab shogirdlari bilan yangi-yangi asarlar yaratib kelmoqda.

Abdullo Narzullayev qadimiy naqshlardan bo‘lmish “**Mehrobi**”, “**Parragul**”, “**Madohil**”, “**Lo‘ndagul**”, “**Doiragul**”, “**Se doira**”,

“Dastagul”, “Du doira”, “Guli bodom”, “Dumi burgut”, “Dumi murg’”, “Morak” kabi naqsh gullarini keng qo‘llaydi.

Abdulla Narzullayev tomonidan tashkil etilgan Usto Ibodullo Narzullayev nomidagi Milliy kulolchilik muzeyida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kulolchilik markazlaridan olib kelingan kulolchilik asarlari namunalari mavjud. Muzey majmuasi xalqaro sayyohlik dasturiga kiritilgan.

Hamrobibi Raximova (1896-1979)

Betakror san’atkor xalq amaliy hunarmandchiligining mohir ustasi Sobiq Ittifoq rassomlar uyushmasining a’zosi Hamrobibi Rahimova qo‘lida sayqal topgan turli-tuman o‘yinchoqlar dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida namoyish qilingan. Ayniqsa Farangistonning Luyer, Sank Peterburgdagi Ermitaj muzeylari ko‘rgazmalarida qo‘yilgan eksponentlar o‘zining betakrorligi va mo‘jizakorligi, fantastik olami bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lgan.

Hamrobibi Rahimova faoliyati davrida o‘nlab yetuk shogirdlar yetishtirdiki, ular bugungi kunda mashhur kulolsoz ishini davom ettirib, o‘zbek kulolchilik maktabini ajoyib san’at asarlari bilan boyitmoqdalar. Shulardan Jabbor Rahimov, Kubar o‘pa Boboyevalardir.

Ijodiy izlanish va tinimsiz mehnat o‘yinchoqsozlarning kundalik yumushiga aylangan. Ustalar yaratayotgan o‘yinchoqlar har bir tomoshabinni ertaklar va ajoyibotlat olamiga olib kirishi tabiiy. Xalq og‘zaki ijodida ta’kidlangan qirq boshli ajdarholar, afsonaviy Semurg‘ qushlar, ikki boshli qo‘chqorlar, Nasriddin Afandi hayotidan hikoya qiluvchi qiziqarli shakllar, o‘zbek xalq ertagi asosida yaratilgan kompozitsiyalar kishini beixtiyor o‘ziga tortadi. Ular bevosita kichkintoylar ruhiy olamini boyitishga, ongini o‘stirishga, go‘zallikni his etishga o‘rgatadi.

O‘zbekiston zamonaviy kulolchiligi

Shunisi quvonchliki viloyat markazi bo‘lgan Buxoro shahrida kulolchilikning yangi sohasi paydo bo‘ldi. Bu dekorativ monumental san’at bo‘lib uni manzaraviy kulolchilik deb ham aytish mumkin. Ma’lumki sopolning bu turi O‘zbekistonga 1970-1980 yillarda kirib keldi. Uning eng go‘zal namunalari poytaxtimiz Toshkent shahrining chiroyiga chiroy qo‘shdi. Ayniqsa toshkentlik ustalar A.Kedrin, A.Raximov, E.Abramov, Yu.Kim, S.Sultonmurodov, S.Qarlixonova,

F.Toshmuhammadovlar bu san'atning mumtoz namunalarini yaratib, ko'p sonli san'at muxlislarning olqishiga sazovor bo'lishdi.

Keyingi vaqtlarda Buxoro viloyatining ma'muriy-madaniy binolarida buxorolik rassom ustalarning ko'rgazmalarida san'atning mazkur turiga oid ishlar ko'zga tashlanmoqda. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bu ishlar kulollar B.Gulov, N.Saidov hamda me'morlar T.Karimov, Z.Qilichevlarning hamkorlikda olib borgan ijodiy ishlarning samarasi sifatida maydonga keldi.

San'atshunos A.Hakimov ta'kidlaganidek – "O'zbekistonda zamonaviy dastgohli kulolchilik rivojlanishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u haykaltaroshlik hamda rangtasvirning shakllanishida ijobiy rol o'ynamoqda". Buxoro kulolchiligi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Kulol, haykaltarosh va me'morlarning ijodiy hamkorligi yaxshi samara bermoqda. Ular keyingi yillarda bir qancha monumental asarlar yaratdi.

II BOB. BADIY KULOLCHILIK TEXNOLOGIYALARI



Badiiy kulolchilikda ishlatiladigan material va loy turlari. Kulolchilik mahsulotlarini sirlash, rang berish va bezash texnologiyalari. Badiiy kulolchilik buyumlarini pechda va xumdonda pishirish jarayoni

Badiiy kulolchilikda ishlatiladigan material va loy turlari.

Har bir hunarni o'ziga xos mashaqqatli va o'ziga xos sir-asrorlari bo'ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o'rgatib har bir mahsulotni aynihsa sifatiga, badiiyligiga, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e'tibor berib kelganlar. Shuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar. O'tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdom, sarxoma, jomashov, xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj bo'lmagani uchun ular yo'qolib bormoqda. Hozirda tovok, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi.

Loyi guldon — sarshirali loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinniloy yoki oq loy — yarim foyans bo'lib, qoramtir loy oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan va boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy — o'tga chidamli qoramtir loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan xar xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy — shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi. **Kosagar loy** — patloy yoki tovoq loy deb

yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loy — 60—70% plastik yog'li loy va 30—40% sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamod, gilvata, bo'yoqlar, angob, charx, mo'yqalam, mola, katta mola, kichkima mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan, qolip, pargor qalam, kojcord, taroq, tagi qalam, gujmak va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib uni tepib, mushtlab pishitiladi. Loyni nam matoga loy tayyorlaydigan xona bo'lib uyni ichki qismidan hovuzga o'xshash uncha chuqur bo'lmagan joy bo'lgan. Bu hovuz pishiq g'ishtdan to'shaladi. Loyni har kuni, ya'ni 20 kungacha suv sepib pishitiladi va nam sholchani ustiga yopib qo'yilgan. Kerakligicha loyni tepib, mushtlab pishitiladi. Loyni yulib olib stol ustiga urib-urib pishitiladi, shunda loy ichida to'planib qolgan havo yo'qotiladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni xumdonda pishirganda o'sha bo'shliq yanada kattalashib idish teshik bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun qancha ko'p loyni pishitilsa shuncha sifatli mahsulot olinadi. Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi. Charx asosiy qurol bo'lib, u katta va kichik yog'och g'ildirakdan iborat bo'ladi. Yog'och o'q bilan birlashtiriladi. Kulol charxining pastdagi katta g'ildiragini oyog'i bilan aylantirib turadi. Yuqoridagi gildirakka loy qo'yib undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idish yaxshilab quritiladi. Chunki yaxshilab quritilmasa xumdonda yorilib ketishi mumkin. Kulolchilikka xos bo'yoqlar tayyorlash ham o'ziga xos texnologiyaga ega.

Oq rang — bu rang oq tuproq gilvata va 11% gacha oqtoshni mayda qumini qo'shib tayyorlanadi. Uni aralashtirib atala holda tayyorlab buyum yuziga tekis suriladi va keyin naqsh chiziladi.

Yashil rang — mis kuyundisi kukuni qo'rg'oshin sir va o'tga chidamli tuproq, ya'ni gilvata qo'shib tayyorlanadi. Mis kukuni avval qizg'ish rangda bo'ladi, xumdonda pishirilganda yashil rangga aylanadi.

Qora rang — qora rang 15% gilvata, marganets oksidi, lazur va qo'rg'oshin sirlarini qo'shib tayyorlanadi.

Sariq rang — yongan temir cop yoki mayda temir chiqindilaridan foydalanib temir kukuni mis qozonga solinadi va unga gilvata, qo'rg'oshin siri hamda suv solib ezg'ilab tayyorlanadi.

Havo rang — lojuvard, oq tosh yoki oq qum va gilvataga qo‘shib tayyorlanadi.

Ish rajayonining ketma-ketligi:

- Loy tayyorlash;
- Charxda yasash;
- Naqsh berish;
- Xumdonda pishirish S0 700 - 900;
- Sirlash texnologiyasi;
- Xumdonda pishirish S0 800 - 960;
- Yakuniy holat;

Qizdirilgan loydan foydalaniladi, loyi shirasi ko‘p bo‘ladi. Loyda tuz bo‘lmasligi kerak. Ohak bo‘lish kerak. Loyi zichligiga ham qaraladi. Tuproq suyultirib keyin elakdan o‘tiladi.

Charxda yasash - kulolchilikning asosiy quroli, kulolchilik charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib xumdonda qizdiriladi. Idishlarning turlariga ko‘ra, xumdonlar ham turlicha (katta - kichik) bo‘lishi mumkin. Sirlanadigan idishlar sirlanganidan so‘ng yana bir bor xumdonda qizdiriladi. Oqibatda qo‘llar ma‘lum idishlar ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘ladi (masalan; kosagar, ko‘zagar, koshinpaz, tandirchi va boshqalar). Kulolchilikda ishlatiladigan dastgoh; kulollarning asosiy ish quroli maxsus loydan ishlanadigan idishni shaklga solishda foydalaniladi, kulollik charxi ikki yog‘och g‘ildirak - katta parrak (diametri 1 m. gacha) va kichik sartaxta diametri 20-30 sm) hamda g‘ildiraklarning markazidan o‘tgan dumaloq xarsang toshga o‘rnatilgan o‘qdan iborat. Kulol pastdagi katta g‘ildirakni ustiga loyni qo‘yib idishni yasaydi.

Kulolchilik charxi ilk bor qadimgi Sharqda miloddan avvalgi 4-3 ming yillikda paydo bo‘lgan. U dastlab qo‘lda aylantirilgan xili hozir qo‘llanilayotgan kulollik charxi yuzaga kelgan. Ikki xil uslubda yasaladi. Qo‘lda gipsli kolipda, charxda yasashadi. Yasalgandan keyin quritiladi. 4-5 soat tarosh qilish jarayoni. Pichoq bilan ustki qismi qumqog‘ozda silliqilanadi. Naqsh berishga tayyorlanadi. Oq ton bo‘lsa kvars bilan kalvin angobasi qoplanadi, oq fon vazifasini beradi. Ustiga naqsh beriladi. Tayyor bo‘lgach xumdonda pishiriladi.

Kulolchilik mahsulotlarini sirlash, rang berish va bezash texnologiyalari

O'rta asr kulollari sir tayyorlash uchun mahalliy xom ashyolarning ishlatib, naqshlari betakror, nafis ishlov berilgan sopol idishlar yaratishgan. Arxeologik qazilmalar etnografik materiallar, kimyoviy va spektral analizlar o'rta asr kulollarini sir asrorlarini sir tayyorlash texnologiyasini, ularning usul va uslublarni ochib berishga katta yordam bergan.

O'rta Osiyo xom ashyolarga boy o'lka bo'lib, bu yerda bir necha konlar joylashgan. O'rta asr ustalari materiallar to'g'risida ma'lumotlarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishgan. Masalan; sirning eng asosiy komponentining (qo'rg'oshin, mis) fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini yaxshi bilishgan. Ular sun'iy ravishda mis oksidini hamda temir oksidlarini tayyorlash usullarini bilishardi. XIII-XIV asrlarga mansub Abulqosim Kashanskiy tomonidan yozilgan —traktat sir tayyorlash usullari taqdim etilgan. Ushbu manba uch qismdan iborat. Birinchi qismida xom ashyolar to'g'risida ma'lumot berilgan. Ikkinchi qismi – moddalarning analizi va uchinchi qismida – moddalarning sintezi yoritilgan. Traktatning birinchi qismida berilgan 12 komponentlar hammasi sir tayyorlashda ishlatilgan. Aksariyat zikr etilgan moddalar zamonaviy sirlarning tarkibiga kiruvchi xom ashyo hisoblanadi. Masalan: loy, mis, kaolin, qo'rg'oshin va boshqalar. Ushbu moddalar sir tarkibini xosil qilgan boshqalari esa rang beruvchi modda sifatida ishlatilgan.

Umuman olganda, sirlar kimyoviy va mineralogik tarkibiga yoxud ishlatiladigan xom ashyo turiga, tayyorlash usuliga, rangiga va boshqa faktlar asosda klassifikatsiyalanadi. Tayyorlash usuli bo'yicha ular xom yoki sirlangansirlarga bo'linadi. Erish harorati bo'yicha sirlar yengil va qiyin eriydiganga bo'linadi. Yengil eriydigan sirlar, massa tarkibiga ko'ra, qo'rg'oshinli, qo'rg'oshinsiz va ishqorli kabi turlarga bo'linadi. Lekin bu sirlar, yuqori dekorativ bo'lishiga qaramay kam ishlatiladi, chunki ularning tarkibida zaxarli qo'rg'oshin birikmalari mavjud. Xom sirlarning tarkibidagi aksariyat xom ashyolari suvda eriydigan bo'ladi. Ular sopolakni g'ovaklariga kirib ketadi. Yuzasi shunday sir bilan qoplangan badiiy buyumlar o'z sifatini yo'qotadi. Shuning uchun sir tayyorlashda qo'llanayotgan xom ashyolarni kuydirib, shishasimon holatiga o'tkaziladi. Bu borada suvda eriydigan birikmalar erimaydigan

birikmalarga aylanadi. Ushbu sirlar keng ko‘lamda mayolika, sopol, fayans buyumlarini bezashda qo‘llaniladi.

Kuldan tayyorlangan sirlar

Eng birinchi sirlar kuldan tayyorlangan. Hozirgi vaqtda faqatgina kulolchilikda ishlatiladi. Odatda kul daraxt, o‘t yoki somondan olinadi. Maxsus manbalardan ma‘lumki, uning kimyoviy tarkibi o‘ziga xos: bu oddiy sirli qum va oz miqdorda alminiy, kalsiy, potash, soda, magnezitsiya, plyus temir va oz miqdorda boshqa komponentlar. Sir tayyorlashda kul miqdori faqatgina 15-20% bo‘lishi yetarli, chunki qum sifati baland. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: kuldan tayyorlangan sirlarning kulolchilikda ko‘proq ishlatilishi lozim.

Kristali sirlar

Kristalli sirlarning ikki xili mavjud. Birinchisi, monokristalli sirlar: - qayta kristallar sirning satxida joylanadi, ikkinchi usul – —avantiyurin deb nomlanadi. Bu holda sir ichida mayda kristallar mavjud, ular nur ta’sirida yaltirash tassuroтини tashkil etadi. Odatda kristalli birikmalar asosan Zn, Fe – elementlar yordamida hosil etiladi. Shuning bilan birga qo‘rg‘oshin birikmalaridan tashqari bor va soda ham qo‘llanilishi mumkin.

Badiiy kulolchilik buyumlarini pechda va xumdonda pishirish jarayoni

Badiiy kulolchilik buyumlarini quritish va pishirish murakkab jarayon bo‘lib bu buyumlar o‘zidan 20-25% namligini yo‘qotadi. Keramika gilidan yasalgan buyumning o‘zidagi massa tarkibidagi namlikni havoga to‘la chiqarib yuborish jarayoni qurish protsessi deyiladi. Qurish jarayonida material o‘zining 20-25% li namligini 2-4% gacha yo‘qotadi.



Buyumlarni pishirish jarayoni (kitob muallifi N.Saidov ish jarayonida)

Quritish jarayoni uch bosqichga bo'linadi:

- a) birinchi bosqichda badiiy buyum namli xavo orqali isitiladi,
- b) ikkinchi bosqichda badiiy buyumning sathidan suv keta boshlaydi. Bu borada buyum quruq namsiz havoda saqlanadi.
- v) uchinchi bosqichda issiqhavoning ta'sirida buyum 70-80% namligini yo'qotadi.

Kulolchilik massasidagi mineral zarrachalarida uch hil ko'rinishdagi- kimyoviy, fizik-kimyoviy, mexanik holatda bog'langan namliklar mavjud. Kimyoviy namlik massaning kristalik reshetkasi-struktura ichida o'tirgan namlikka aytiladi. Bu namlik buyumni pishirish yo'li bilan temperaturani 550 °ga ko'tarilganda, materialdan havoga namlik ajralib chiqadi. Fizika - kimyoviy yoki bog'langan namlik gil zarrachalariga gidrat obolochkalarida joylashganiga aytiladi. Mexanik yoki erkin holatdagi namlik keramik massa kapilyarlariga joylashgan. Quritish jarayonida mexanik - erkin holdagi namlik to'laligicha va fizika-kimyoviy namlik qisman havoga ajralib chiqadi. Buyumlarni qurish jarayoni qisqarish, ya'ni 10-15% kichrayish jarayoni bilan kuzatiladi. Shu sababli kulolchilik buyumlarda kichrayish natijasida kamchiliklar bo'ladi. Buning oqibatida buyumlar yorilishi mumkin. Bu protsessning oldini olish uchun quritish texnologik rejimini to'g'ri olib borish kerak. Odatda keramik buyumlarini quritish rejimi **uch pog'onada** amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda havo orqali isitiladi. Bu bosqichda buyumlar oz qismda namligini yo'qotadi. Sekin asta to'xtovsiz quritish orkali buyumlarning ichki qatlamidan namlik ajralib chiqa boshlaydi. Buyumlar hajm jihatdan kamayib kichraya boshlaydi va material massasi qota boshlaydi. Oxirgi qurish pog'onasida buyumlarda hajm kichrayish to'xtaydi, havoga namlik ajralib chiqish kamayadi.

Kulolchilik buyumlarida tabiiy qurish jarayoni 2-3 kun davom etadi. Qolipsiz yasalgankulolchilik buyumlar maxsus quritish uskunalarida 45-50 ° quritiladi.

Uchinchi bosqich quritilishi 100-110° da buyumlar quritiladi. Ko'pchilik kulollar tejash uchun pishgan xumdondan chiqqan issiq, havodan mahsulotni quritishda foydalanadi. Pishirish jarayoni kulolchilik buyumlari tayyorlash jarayonidagi eng ohirgi bosqich bo'lib, o'ta muhim jarayon hisoblanadi. Pishirish jarayonida kulolchilik buyumlarida murakkab fizik - kimyoviy jarayonli protseslar bo'lib o'tadi. Buning oqibatida gil massasidan yasalgan mo'rt material

mustahkam tosh holatga - mustahkam, qattiq, kimyoviy chidamli, estetik chiroyli buyumga aylanadi. Pishirish jarayoni kulolchilik buyumlari turlariga qarab o'zining texnologik bosqichi asosida amalga oshiriladi.



Kulolchilik charxi

Xom ashyolarni tayyorlash jarayonlari:

Kulolchilik korxonalarida har xil ashyolar saqlanadi. Aksariyat xom ashyolar korxonalarga uzoq manzillardan ham keltiriladi. Xom ashyo sig'iradigan va yuklaydigan mashina, buldozer yoki ekskavator yordamida avvalo karyer yuzasi, o'simlik yuzasi, kulrang tuproq, qum va ohaktosh qoldiqlari tozalanadi, oqava qoldiqlari yoqotiladi hamda kirish yo'li quriladi. So'ngra turli usullarda asosiy ashyoni kavlash va transport vositalariga yuklash ishlari amalga oshiriladi.

Kuydirish: Kulolchilik buyumlariga termik ishlov berish texnologiyasi eng murakkab va ma'sul jarayon bo'lib tayyor mahsulotning ma'lum darajali sifatini ta'minlaydi. Ularning sopolagi qattiq mustahkam bo'lib issiq va sovuqning keskin o'zgarishlariga chidamli bo'ladi. Kuydirish jarayonining asosiy maqsadi badiiy buyumga berilgan shaklni saqlab qolish. Bundan tashqari kuydirilgan badiiy buyumni qo'lga olganda yoki unda butun korxonaning ish bosqichlari ko'rinib turadi. Masalan chinni sopoli sarg'ish bo'lsa unga ishlatilgan xom ashyolardan temir birikmalari ko'p miqdorda uchragan bo'ladi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki kuydirish jarayoni faqatgina buyumni fizikaviy va mexanikaviy xossalariga emas, balki bezatish

jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Odatda badiiy buyumlarga termik ishlov berish ikki bosqichda olib boriladi.

Dastlabki kuydirish jarayonida xom buyum pechkaga 40-80 haroratda kiritiladi. Bu bosqichda eng muhim jarayon shundan iboratki harorat asta sekin ko'tarilib boriladi va sopoli butun saqlanadi. Harorat 600⁰ dan boshlab birinchi bosqich 800-950 ⁰ da tamom bo'ladi.

Kulolchilikda ishlab chiqariladigan buyumlar an'anaviy keramika (qurilish va nafis keramika) texnika keramikasi (yuqori o'rga chidamli oksidli keramika) maishiy xo'jalik keramikasiga bo'linadi. Sopol mahsulotlari xom ashyo turi va miqdoriga qarab tayyorlash usuli ishlov berish turi tuzilishi suv shimuchanligi va boshqa xususiyatlari bilan guruh va turlarga bo'linadi. An'anaviy va noan'anaviy keramika texnika qurilish keramikasi maishiy xjalik sopol buyumlari va hokazolar.

ATAMALAR RO‘YXATI.

1. **Angob**– sopol buyumlarni oq foni —angob deyiladi.
2. **Arxaika**– eng sodda naqshlar, tarixiy naqshlardir.
3. **Ishqor**– bu texnologiya, sopol idishlarga beriladigan sir. U tabiiy holda o‘tlardan olinadi.
4. **Kompozitsiya**– har bir predmetni, narsani, tabiatni, tabiiy va sun’iy joylashuvi.
5. **Kolorit**– ranglar yig‘masi.
6. **Kontur** – tasvirning chetki qismi hoshiya qilib chizilgan chiziqlari.
7. **Keramika** – oddiy sopol.
8. **Fayans**– idish tovoq, sopol suvenirlar, haykaltaroshlikda ham ishlatiladi.
9. **Chinni**– kaolin qorishmasi ko‘proq bo‘ladi, chinni fayansga nisbatan og‘irroq bo‘ladi. CHinni tiniq bo‘ladi.
10. **Usta** – asli fors-tojik tilidan olingan so‘z bo‘lib, biror hunarni egallab, shu sohada yuqori malaka orttirgan shaxs.
11. **Terrokota** – sopol - keramika- oddiy qizg‘ish sopol.
12. **Potina**– bronzani achitmasi.
13. **Monumental (mahobatli)**– hajm jixatdan katta asar va haykal.
14. **Glazur**– turli ranglardan tayyorlangan qorishma.
15. **Hal** – arabcha eritish so‘zidan olingan bo‘lib, yutish degan ma’noni anglatadi. Tunj, alyuminiy, jez, rux, qalay, kumush hamda oltindan tayyorlangan kukun.
16. **Smalta** – sopol, shisha hamda chini buyumlarni bo‘yashda ishlatiladigan rangli bo‘yoq.

USTA KULOL
NARZILLO SAIDOV
IJODIY ISHLARIDAN
NAMUNALAR



1-rasm NARZILLO SAIDOV IJODIY USTAXONADA





2-rasm



3-rasm





4-rasm



5-rasm



6-rasm




7-rasm




8-rasm IJODIY ISH ZAVQI (NARZILLO SAIDOV VA GAVHAR SAIDOVALAR)



*ABU XAVS KABIRMAQBARASIDAGI N.SAIDOVNING KULOLCHILIK
IJODIY ISHI (9-rasm)*







10-rasm





11-rasm BUXORO SHAHAR “FARHOD” KAFESIDAGI N.SAIDOVNING IJODIY ISHI





12-rasm BUXORO SHAHAR “FARHOD” KAFESIDAGI N.SAIDOVNING IJODIY ISHI



13-rasm Ijodiy ish yakuni





14-rasm Dekorativ kulolchilik ishlari (lagan)





15-rasm *Dekorstiv kulolchilik ishlari (sovg'a buyumlari)*





16-rasm Dekorativ kulolchilik ishlari (lagan)




17-rasm





18-rasm Dekorativ kulolchilik ishlari



19-rasm MAHOBATLI KULOLCHILIK



20-rasm “Navro‘z” panosi



21-rasm



22-rasm Ijodiy ishning yakuniy bosqichi



23-rasm N.Saidovning ijodiy ishlari



24-rasm N.Saidovning ijodiy ishlari



25-rasm N.Saidovning ijodiy ishlari



*23-rasm Buxoro davlat universiteti rektori O.Xamidov hamda universitet “Kulolchilik”
ustaxonasi ishlab chiqarish ta’lim ustasi N.Saidov ijodiy ustaxonada*

BUXORO VA G'JDUVON KULOLCHILIK MAKTABI USTALARI ISHLARIDAN NAMUNALAR



Buxoro O'ba kulolchilik maktabi davomchisi Kubaro Boboyevaga davlatimiz yuksak mukofoti Buxoro viloyat hokimi B.Zaripov tomonidan topshirilmoqda



Buxoro tumani hokimi X.Jo'rayevning usta kulol Bahrom Gulovning ijodiy ustaxonasiga tashrifi



35-rasm G'ijduvonlik kulol Alisher Narzullayev



26-rasm G'ijduvonlik kulol Abdullo Narzullayev



27-rasm Kulol Kubaro Boboyeva



28-rasm Abdulvohid Karimov ijodiy ish jarayonida



29-rasm Usta kulol Erkin Esanov ijodiy ishlari



30-rasm Usta kulol Ilhom Umarov



31-rasm Abdulvohid Karimov ijodiy ish jarayonida



32-rasm



33-rasm



34-rasm



35- rasm KULOL AZAMAT NASHVANOV IJODIY ISHLARI



36-rasm KULOL BAHROM GULOV IJODIY ISHLARI

RISHTON KULOLCHILIK MAHSULOTLARI



37-rasm





39-rasm



40-rasm



41-rasm



42-rasm



43-rasm

TOSHKENT KULOLCHILIK MAHSULOTLARI




44-rasm



45-rasm



46-rasm



47-rasm

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2017-2021 yillardagi 5-ustuvor strategiyasi hamda 2019-yildagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbus.

2. D.Mamatov - Amaliy bezak san'ati kompozitsiyasi. – B: Kamolot, 2023 yil.

3. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. -T: Qomuslar Bosh taxririya, 1992.

4.Akilova K.B. Narodnoe dekorativno – prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. XX vek. Almati PRINT – S, 2005.

5. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – T.: Mehnat, 1991.

6. Qayumov N.R. Ashyoshunoslik. - T.: Sharq, 2007. 78. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Barcha jildlar.

7. Shoyoqubov SH.K. O'zbek xalq amaliy-bezak san'ati: //Bezakli albom. - T.: O'zbekiston, 2009 y.

8. Tashxodjaev SH. S. Xudojestvennaya polivnaya keramika Samarkanda IX - nach. XIII vv. Tashkent, 1967. 92-93 6.

9. Xakimov A. A. Sovremennoe dekorativnoe iskusstvo respublik Sredney Azii (k probleme traditsii i novatorstva). Tashkent, 1988. 15-6.

10. San'at jurnali 2000-yil 38 bet

11. San'at jurnali 2007-yil 3/4- son

12. San'at jurnali 2008-yil 3/4 –son

13. San'at jurnali 2010-yil 2 –son

[illegible]

[illegible]

Mamatov Dilshod Kodirovich
Saidov Narzillo Abdullayevich

BADIY KULOLCHILIKDA

LOYIHALASH

O'quv qo'llanma

Muharrir:	E.Eshov
Tex. muharrir:	D.Abduraxmonova
Musahhih:	M.Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M.Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 04.03.2022.
Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 26.03.2024. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garnitura 1/16.
Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 6,5 Adadi 100. Buyurtma 118480916



"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy
Tel.: + 998 91 310 27 22